

XX ASR NEMIS ADABIYOTIDA REALIZM: GENRIX BYOLL IJODI MISOLIDA

Xasanova Musallam Muminovna

O'zMU xorijiy filologiya fakulteti

Katta o'qituvchi

Email: hmmusallam@mail.ru

+99977322019

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr nemis adabiyotida ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqeliklar asosida keng yoyilgan realizm yondashuvi va ushbu yo'nalish rivojida katta o'rin tutgan taniqli yozuvchi va shoir, jamoat arbobi Genrix Byoll ijodining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek maqolada ijodkorning ilk asarlari va post-urush davrfiga oid ijod na'mulanalri qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. *Realizm, jahon adabiyoti, nazm, nasr, filologiya, Genrix Byoll, nemis adabiyoti.*

ABSTRACT

The article reveals the role of the famous writer and poet, public figure Heinrich Böll, who played an important role in the development of the approach of realism in the German literature of the 20th century. In addition, the early and post-war novels of the author were analyzed in comparative way.

Keywords. *Realism, world literature, poetry, prose, philology, Heinrich Böll, German literature.*

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается роль известного писателя и поэта, общественного деятеля Генриха Бёлля, сыгравшего важную роль в развитии в немецкой литературы XX века такого направления как реализм, который возник в результате социально-политических изменений в немецком обществе. Также в статье, изучены раннее и после-военное творчество автора.

Ключевые слова. *Реализм, немецкая литература, мировая литература, поэзия, проза, филология, Генрих Бёлль.*

KIRISH

XX asr nafaqat nemis xalqi, balki butun dunyo mamlakatlari tarixi, adabiyoti va umuman ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga katta ta'sir qilgan ham ijobiy, ham salbiy voqeliklarga boy asr edi. Ayniqsa, Germaniya adabiyotida mamlakat hayotida ro'y bergan voqealar, ikki jahon urushlari, urushdan keyingi inqirozli

vaziyatlar hamda urushga inson munosabati markaziy mavzularga aylandi. XX asr nemis adabiyotining eng yirik vakillaridan biri bo'lgan Genrix Byollning ijodi doimiy ravishda Germaniyaning o'zida ham, xorijda ham tadqiqotchilar va tanqidchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Zero, G.Byoll nemis realizmida urushning oddiy insonlar taqdirida tutgan o'rnini mohirona ochib bera olgan mualliflardan biri hisoblanadi.

Nobel mukofoti sovrindori Genrix Byoll ijodi o'zining dinamikligi, g'oyalar va uslublarning harakatchanligi bilan e'tiborni tortadi. Genrix Byoll insoniylik tamoyillari, insonning yashash va yashab qolish hislari kabi o'zgarimas mezonlar va o'zgaruvchan muhit va makonning mazkur o'zgarimas mezonlarga ta'sirini turli taqdirlar va hayotiy voqealar misolida juda erkin va qiziqarli hokoya qilib bera olgan ijodkor shaxsdir. Genrix Byoll realizmi markazida doimo kuch va kuch ishlatish, zo'raravonlikning oqibatlarudan ko'ra, og'ir vaziyatlarda insonning o'z taqdiri uchun mas'uliyatni his qilish imkoniyati turadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ham yozuvchi, ham tarjimon, romanist, shoir, ssenarist va jamoat arbobi G.Byoll 1917-yil 21-dekabrda Germaniyaning Kyoln shahrida tug'ilgan. Genrix Byoll 1924- yilda katolik maktabiga boradi. Keyin esa o'qishini Kyolndagi kayzer Vilgelm gimnaziyasida o'qishini davom ettiradi. Gimnaziyani tugatgandan keyin Genrix biroz vaqt kitob sotish do'konida shogird bo'lib ishladi, bu jarayonga parallel ravishda xususiy darslar berdi, so'ng esa bir yil davomida mehnat lagerida ishladi¹.

Birinchi jahon urushidan keyingi ushbu davr nemis jamiyatida juda og'ir va og'riqli o'zgarishlar davri edi. Shu sabab ham bu davr Genrix Byollning hayotida katta rol o'ynadi. Aynan shu vaqtda u yozuvchi bo'lishga ahd qildi. Shuningdek, uning adabiyotga qiziqishida oilaviy muhitning ham ta'siri sezilarli edi. Davr musibatlariga qaramasdan, Byollar uyida kitoblar juda ko'p edi va kutubxona oila a'zolari uchun o'ziga xos barqarorlik makoni edi. Kutubxonadagi turli davr va turli millat vakillari yomonidan yaratilgan ijod na'munalari yosh Genrixda adabiyotga qiziqish uyg'otdi. Genrix ushbu kitoblarni doimiy ravishda o'qib, ularni tahlil qilib borardi.

Badiiy qiyoslash, adabiyotda o'z davri odamlarini realistik yondashuv asosida ochib berishni yosh Byoll aynan bolaligida, XVIII va XIX asr nemis va jahon adabiyoti na'munalari bilan tanishishorqali o'rganganini o'zi ham ta'kidlab o'tgan. U ayniqsa Dostayevskiy, Leon Blua, Chesterton, Bernano, Dikkens, Fransua Moriak, IvlinVo, Gertruda fon Le Fort asarlarini chuqur o'rgandi. 1939-yil Genrix Byoll

¹ Фрадкин И. Генрих Бёлль - писатель, и больше чем писатель // Генрих Бёлль. Собрание сочинений. - М.: «Художественная литература», 1989. -Т. I. - с. 21

hayotida yangi davr boshlandi. U Kyoln universitetida filologiya yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. Ijod va adabiyot olamiga endi to'liq kirob kelganda, ta'lim jarayoni hali boshlanmay askar sifatida harbiy xizmatga chaqirildi. Zahiradagi polkda oddiy askar bo'lib to'rt marotaba yarador bo'ldi va ko'p oylar kasalxonada yotdi. Og'ir kasalliklarga chalindi, shu sabab iloji boricha urishda qatnashmaslik uchun qarindoshlarinikida yashirinib yashadi². Hayotining aynan ushbu davri uning kelgusi ijodini aniqlab berdi deyish mumkin. Urush va uning salbiy oqibatlari Genrix Byollning deyarli har bir ijod na'munasida markaziy mavzuga aylandi. 1945-yilda Byoll Amerikaliklarga asirga tushib qoladi va bir necha oy Fransiyada harbiy asirlar lagerida yashaydi. Asirlikdan Kyolnga qaytganligidan so'ng u o'qishini tiklaydi va yana yozishni davom ettiradi. 1946-yilda birinchi hikoyalari jurnal va gazetalarda bosilib chiqadi³. 1949-yilda esa "der Zug war punktlich" hikoyasi, 1950-yilda kichik hikoyalar to'plami "Wo warst du Adam" romani nashrdan chiqariladi⁴. Bu yillarda Byoll nemis tili islohoti bilan shug'ullanuvchi guruh a'zosiga aylanadi va oddiy va haqiqiy ya'ni konkret voqealar bilan boglangan yangi nemis tili yaratish g'oyasi bilan chiqdi.

1-rasm. Genrix Byoll ijodida realizm yondashuvi xususiyatlari



Manba: muallif tomonidan shakllantirildi

² Beckert M. 1970: Untersuchungen am Erzählwerk Heinrich Bölls. Themen - Gestalten - Aspekte. Erlangen.- P.45

³ Рудницкий М. Л. 1980: Генрих Бёлль // История литературы ФРГ / И. М. Фрадкин (ред.). М., с. 299.

⁴ Кожевников М.В., Авраменко Ю.И. Лирический контекст военных романов Г. Бёлля// жур. Проблемы истории, филологии, культуры. - 2012, №3. с. 232

Byollning oldingi hikoyalaridan farqli ravishda keyingi hikoyalari haqiqatdan ham stilistik oddiylik va aniq hayotiy voqealarga mos va o'sha davr avlodiga mos ravishda talqin etilgan. Uning "Nicht nur zur Weihnachtszeit" (1952), "Doktor Murkes gesammeltes Schweigen-und andere Satieren" (1958), "Ein Schluck Erde" (1961), "Als der Krieg ausbrach" va "Als der Krieg zu Ende war" (1962) asarlari tezda o'z o'quvchilariga va tanqidchilariga ega bo'ldi. 1951- yilda yozuvchi 47 grupp mukofotini "Qora qo'y" hikoyasi uchun qo'lga kiritdi. 1963- yilda yozuvchining mashhur asarlaridan biri "Ansichten von Clouns" bosmadan chiqdi. Bu romanda yozuvchi ibodatxona va xizmatchilarini oddiy odamlarga xizmat qilishni xohlamasligi va natsizm bilan hamkorlik qilishini qattiq tanqid qiladi. 1967- yilda Genrix Byoll Germaniyadagi ko'zga ko'ringan Georg Byuxner mukofotiga sazovor bo'ldi⁵. 1972 yilda esa yozuvchi "Gruppen Portret mit Damen" romani uchun Nobel mukofotini qo'lga kiritdi.

XULOSA

Yozuvchi o'zining har bir asarida o'sha davr ruhini haqqoniy tasvirlagan. Asarlarida urush haqida va uning insoniyatga keltiradigan yovuzliklari, natsizmning mudhish oqibatlarini ochiq va ro'y rost ochib bergan. Genrix Byoll asarlarini o'rganganimizda biz ularni hikoyalar, povestlar va romanlarga bo'linganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin u barcha asarlarida ham doim yaxshilik, insoniylik xislatlarini tarannum etadi. Yozuvchining bu asarlarini o'qib o'rganganish davomida shunday xulosa qilish mumkinki, Genrix Byollning ko'p asarlari odamlarni insoniy xislatlarni ijobiy tomonga shakllanishida katta xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Genrix Byoll ijod yo'liga nafaqat uning nasr va nazmdagi iste'dodi, balki XX asrda ro'y bergan tarixiy voqealar ta'siri ham sezilarli bo'lgan. Byoll umrining ohirigacha tinchlik va barqarorlik, insoniylik tarafdori va kuchisi sifatida qoldi. Uning asarlari qahramonlari urush va uning oqibatlari natijasida paydo bo'lgan muammolar girdobida qolgan, o'zligini yo'qotsada, insoniylikni saqlab qolishga intilgan oddiy insonlardir. U bir ko'rinishda pddoy tuyulgan inson taqdirida katta voqelik ta'siri qanchalik iz qoldirishi mumkinligini o'z asarlari orqali ochib bera oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кожевников М.В., Авраменко Ю.И. Лирический контекст военных романов Г. Бёлля // жур. Проблемы истории, филологии, культуры. - 2012, №3. С.232-239.

⁵ Остудина Т. А. 1969: О стиле Г. Бёлля // Вестник Ленингр. ун-та: История, язык, литература. 8, с.102

2. Остудина Т. А. 1969: О стиле Г. Бёлля // Вестник Ленингр. ун-та: История, язык, литература. 8, 99-108.
3. Рудницкий М. Л. 1980: Генрих Бёлль // История литературы ФРГ / И. М. Фрадкин (ред.). М., 295-325.
4. Beckert M. 1970: Untersuchungen am Erzählwerk Heinrich Bölls. Themen - Gestalten - Aspekte. Erlangen.
5. Фрадкин И. Генрих Бёлль - писатель, и больше чем писатель // Генрих Бёлль. Собрание сочинений. - М.: «Художественная литература», 1989. -Т. I. - С. 5-28.